Kaliy xlorati ishlab chiqarish uchun sanoat-tajriba uskuna yaratildi

// 15.10.2015
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/kaliy-hlorati-ishlab-chiqarish-uchun-sanoat-tazhriba-uskuna-yaratildi

“Navoiyazot” AJda kaliy xlorati (Bertolet tuzi) ishlab chiqarish uchun sanoat-tajriba uskuna yaratildi. Bu modda gugurt ishlab chiqarishda, lak-bo'yoq, farmatsevtika, yog'och va kimyo sanoatida ishlatiladi. Mahsulotning tajriba partiyasi ishlab chiqarilib, «ATLAST INVEST» hamda «Nurafshon yulduz yog'dusi» MChJlarga sinovdan muvaffaqiyatli o'tkazildi. Shu kunlarda korxona oyiga 40 tonna mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha buyurtma oldi.